2-ŞÖBA · ÇORVAÇILIK VA HAYVONLAR MAHSULDORLIGI

MONBELYARD ZOTLI QORAMOLLARNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA MAHSULDORLIGI

Nametov Askarbay Lepesbaevich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali tayanç doktorant

Mamatov Xurshid Abdirafiyevich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali Zooinjeneriya kafedrasi mudiri dotsent

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311108

NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR
513–515

NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Nametov A.L., Mamatov X.A. Monbelyard zotli qoramollarning biologik xususiyatlari va mahsuldorligi // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 513–515. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311108

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada Monbelyard zotli qoramollarning kelib çiqişi, biologik xususiyatlari, taşqi körinishi hamda sut va göşt mahsuldorligi haqida ma'lumotlar yoritilgan. Şuningdek, zotning tirik vazni, sut tarkibidagi yoğ va oqsil miqdori, gösht sifati hamda oziqlantiriş xususiyatlari körib çiqilgan. Monbelyard qoramollarining mahsuldorlik imkoniyatlari va ulardan çorvaçilikda samarali foydalaniş masalalari ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan.

KALIT SÖZLAR Monbelyard zoti, qoramolçilik, biologik xususiyatlar, sut mahsuldorligi, gösht mahsuldorligi, tirik vazn, oziqlantiriş, naslçilik.

Kiriş. Çorvaçilik qişloq xöjaligining muhim tarmoqlaridan biri bölib, aholini sifatli gösht va sut mahsulotlari bilan ta'minlaşda katta ahamiyatga ega. Çorvaçilik samaradorligini oşirişda qoramol zotlarini töğri tanlaş, ularni sifatli oziqlantiriş va parvarişlaş muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda sut va gösht mahsuldorligi bilan ajralib turadigan qoramol zotlarini örganişga alohida e'tibor qaratilmoqda. Şunday zotlardan biri Monbelyard zotidir. Uşbu zot Fransiyada naslçilik işlari natijasida şakllangan bölib, sut va göşt mahsuldorligini birgalikda namoyon etişi bilan ajralib turadi[5].

Monbelyard qoramollarining kelib çiqişi, taşqi körinişi, biologik xususiyatlari hamda mahsuldorlik körsatkiçlarini örganiş uşbu zotning xöjalikdagi imkoniyatlarini tuşunişga yordam beradi. Ayniqsa, oziqlantiriş va saqlaş şaroitlarining mahsuldorlikka ta'sirini örganiş çorvaçilikda muhim ahamiyatga ega[4-5].

Monbelyard zotining kelib çiqişi; Monbelyard qoramol zoti Fransiyaning şarqiy qismidagi Franche-Comté hududida şakllangan. Uşbu zotning tarixi XVIII asr boşlariga borib taqaladi. Öşa davrda Şveytsariyaning Bern toğli hududidan kelgan çorvadorlar öz qoramollarini Fransiyaning Monbelyard hududiga olib kelganlar. Keyinçalik mahalliy

qoramollar bilan olib borilgan tanlaş va naslçilik işlari natijasida zotning xususiyatlari takomillaşgan[8].

1872-yilda qoramollar ilk bor Monbelyard zoti nomi bilan körgazmada namoyish etilgan. 1889-yilda esa Parijda ötkazilgan xalqaro körgazmada zot rasman tan olingan va uning naslçilik kitobi taşkil etilgan[6].

Monbelyard qoramollari, asosan, qizil-ola rangli bölib, tanasida oq va qizil doğlar mavjud. Boşining old qismi va oyoqlari köpinça oq rangda böladi. Bu belgilar ularni boşqa qoramol zotlaridan ajratib turadi. Zot vakillari gavdasining yirikligi, tana tuzilişining mustahkamligi va sut ishlab çiqariş xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Fransiyada uşbu zot parvarişlaş şaroitlariga nisbatan talabçan emasligi, sut tarkibida oqsil va yoğ miqdorining yuqoriligi hamda göşt mahsuldorligi bilan qadrlanadi. Monbelyard sigirlari sut va göşt yetiştiriş maqsadlarida foydalanişga moslaşgan bölib, ularni boqişda alohida şaroitlar talab etilmasligi ta'kidlanadi. Mazkur zot qoramollarining göşti Yevropa tasniflaş tizimida R sinfiga kiritiladi, suti esa Fransiyada pişloq işlab çiqariş uçun muhim xomaşyo manbalaridan biri hisoblanadi[9].

Monbelyard zotining taşqi körinişi va biologik xususiyatlari; Monbelyard zotli qoramollar yirik gavdasi, mustahkam tana tuzilişi va özіga xos qizil-ola rangi bilan ajralib turadi. Ularning boşi va oyoqlari, odatda, oq rangda böladi. Gavdasi keng, kökrak qafasi yaxşi rivojlangan, oyoqlari esa mustahkam bölib, bu xususiyatlar hayvonlarning harakatlanişi va xöjalikda uzoq muddat foydalanilişiga yordam beradi[3,4].

Voyaga yetgan Monbelyard zotiga mansub sigirlarning yağrin balandligi örtaça 140–150 sm, tirik vazni esa 600–800 kg atrofida böladi. Naslçilik manbalarida sigirlarning örtaça tirik vazni 700 kg, buqalarniki esa 1200 kg gaça yetişi qayd etilgan. Sigirlarning kökrakdan oldingi oyoq panjasi sohasi (kaft aylanasi) 20–21 sm, gavda uzunligi esa 162–165 sm ni taşkil etadi. Uşbu zot vakillari mustahkam konstitutsiyasi, yaxşi rivojlangan tana tuzilişi va yuqori tirik vazni bilan ajralib turadi(7-10). Keltirilgan körsatkiçlar hayvonlarning yoşi, irsiy xususiyatlari, naslçilik yönalişi hamda oziqlantiriş va saqlaş şaroitlariga qarab farqlanişi mumkin.Monbelyard zotining muhim biologik xususiyatlaridan biri uning sut va gösht yönalişidagi imkoniyatlaridir. Sigirlar sut işlab çiqariş xususiyatlari bilan ajralib tursa, buzoqlari va yoş buqalari ösiş hamda göşt yetiştiriş uçun ham qadrlanadi. Zotining mustahkam tana tuzilişi va dağal ozuqalardan samarali foydalaniş qobiliyati uni turli xöjalik şaroitlarida boqiş uçun qulay zotlardan biri sifatida tavsiflaydi[5].

Bundan taşqari, Monbelyard qoramollarining oyoqlari va tuyoqlari mustahkamligi, yelinning yaxşi rivojlanganligi hamda uzoq muddat mahsuldor böliş xususiyatlariga naslçilik işlarida katta e'tibor beriladi. Uşbu belgilar hayvonlarni tanlaş va ulardan samarali foydalanişda muhim hisoblanadi[4-5].

Monbelyard zotli qoramollarning sut va göşt mahsuldorligi; Monbelyard zoti sut-göşt yönalişidagi qoramol zotlaridan biri hisoblanadi. Uşbu zot sigirlarining suti tarkibidagi oqsil va yoğ miqdori bilan ajralib turadi. Ayniqsa, sutidan pişloq tayyorlaşda keng foydalaniladi. Sut tarkibining xususiyatlari uşbu zotni sut işlab çiqarişga ixtisoslaşgan xöjaliklar uçun qimmatli zotlardan biriga aylantiradi.

Monbelyard sigirlarining sut mahsuldorligi ularning yoşi, laktatsiya davri, nasliy xususiyatlari va oziqlantiriş darajasiga boğliq. Manbalarda qayd etilişiça, monbelyard zotli sigirlarning 305 kunlik laktatsiya davridagi sut mahsuldorligi 7 924 kg ni, sut tarkibidagi yoğ

https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311108

miqdori 3,9 % ni, oqsil miqdori esa 3,2 % ni taşkil etgan. Töğri tuzilgan ratsion va yaxşi parvariş sut miqdori hamda sifatiga ijobiy ta'sir körsatadi[10].

Monbelyard zotli qoramollarni oziqlantiriş va parvarişlaş xususiyatlari; Monbelyard zotli qoramollarning mahsuldorligi köp jihatdan oziqlantiriş va parvarişlaş şaroitlariga boğliq. Hayvonlarni töğri oziqlantiriş ularning soğlom ösişi, tirik vaznining ortişi va yuqori mahsuldorlikka erişişida muhim ahamiyatga ega. Qoramollar ratsionida sifatli dağal ozuqalar, şirali ozuqalar va konsentrat ozuqalar bölişi kerak. Piçan, silos, senaj va boşqa ozuqalar hayvonlarning fiziologik ehtiyojlariga mos ravişda beriladi. Şuningdek, ratsion tarkibida oqsil, energiya, mineral moddalar va vitaminlarning yetarli bölişiga e'tibor qaratiş lozim[1-3].

Monbelyard zotli qoramollarni göşt yetiştiriş maqsadida boqişda yoş hayvonlarning ösiş sur'ati va tirik vazni muntazam nazorat qilinişi kerak. Ozuqa miqdori va tarkibini hayvonlarning yoşi, vazni hamda fiziologik holatiga moslaştiriş ozuqadan samarali foydalanişga yordam beradi. Parvarişlaş jarayonida hayvonlar saqlanadigan joyning tozaligi, şamollatilişi, harorat şaroiti va doimiy toza içimlik suvi bilan ta'minlanişi muhimdir. Bundan taşqari, veterinariya-profilaktika tadbirlarini öz vaqtida amalga oşiriş hayvonlar salomatligini saqlaşga xizmat qiladi[1-5].

XULOSA

Monbelyard zoti sut va göşt mahsuldorligini birgalikda namoyon etadigan qoramol zotlaridan biri hisoblanadi. Uning yirik gavdasi, mustahkam tana tuzilişi va sutining tarkibiy xususiyatlari xöjalik uçun muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili şuni körsatadiki, Monbelyard qoramollarining mahsuldorligi irsiy xususiyatlar bilan bir qatorda oziqlantiriş va parvarişlaş darajasiga ham boğliq. Şu sababli hayvonlarning biologik xususiyatlarini hisobga oliş, ratsionni töğri taşkil etiş va veterinariya talablariga rioya qiliş muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Chládek, G., & Žižlavský, J. (2004). Comparison of meat performance of Montbeliarde and Czech Pied bulls fattened to live weight of 680 kg. Acta Universitatis Agriculturae et Silviculturae Mendelianae Brunensis, 52(5), 107–114.
2. Гавриленко В.П, Катмаков П.С, Прокофьев А.Н. (2018). Воспроизводительная способность коров разных генотипов, использованных в стаде скота симментальской породы. Вестник академии, №1 (41) 74-78
3. Яковенко А.М, Антоненко Т.И., Селионова М.И. (2013) Биометрические методы анализа качественных и количественных признаков в зоотехнии. Учебное пособие. Ставропол, Агрус, 2013 г
4. Erdanova G.M, Yusupova K.Y. (2024). Monbelyard zotli sigirlarning qizlarini tana tuzilishiga bog'liqlikdagi sut mahsuldorligi. "Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot" nomli 2024 yil №11-sonli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiyasi. 96-99.
5. Mamatov X.A., Madrahimov Sh.N. (2026). Qoraqolpog'iston sharoitida monbelyard, golshtin zotli sigirlar va duragaylarning sut mahsuldorligi AGRO ILM – O'ZBEKISTON QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI CHORVACHILIK, №5(126) 96-98
6. https://www.montbeliarde.org
7. https://biblioteka-krs.ru/montbeliarde
8. https://ru.wikipedia.org
9. https://transfaire.ru
10. https://direct.farm